

SMART TA'LIMNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI XUSUSIDA

Hamidov Xoldarali

Qo'qon DPI, Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Smart ta'limning o'ziga xos xususiyatlardan bir bu ta'lim oluvchi xar qanday insoning qayerda bo'lishdan va moliyaviy ahvoli qat'iy nazar, barcha insonlarga katta qulaylik berishi, hamma hohlagan joyda ta'lim olish imkonini berishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim texnologiyasi, tendensiya, raqamlashtirish, innovatsiya, suniy intellekt, robototexnika, zamonaviy ta'lim

KIRISH

Hozirgi rivojlanib borayotgan dunyoda texnika va texnologiya jadal suratda bilan tez rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanish yangilanishlarni barcha sohalar singari ta'lim sohasida ham kuzatishimiz mumkin. Bu O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida"da hamda ta'lim sohasiga oid qabul qilinayotgan davlat dasturlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmoyishlari o'z aksini topgan. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma'lum qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

Hususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Tizimdagi islohotlarning eng muhim jihatlaridan biri, oliy ta'lim bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqadorlik integratsiyasini vujudga keltirish bo'ldi.

Yuqorida xujjatlar orqali ta'lim sohasidagi islohotlar o'qituvchi-pedagoglarga juda katta vazifalarni belgilab beradi va bu amalga oshirish yo'lida tinim izlanish, o'qitishning yangi texnologiyalarini ta'lim tizimiga olib kelishga undaydi.

O'qitishning yangi texnologiyalariga butun dunyoda yaxshi samara berib kelayotgan "SMART" ta'lim tizimini olishimiz mumkin.

Smart ta'limning o'ziga xos xususiyatlardan bir bu ta'lim oluvchi xar qanday insoning qayerda bo'lishdan va moliyaviy ahvoli qat'iy nazar, Barcha insonlarga katta qulaylik beradi. Bundan kelib chiqadiki hamma hohlagan joyda ta'lim olish imkoni beradi. Smart ta'lim so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib Smart-(aqlli , idrokli, texnologik).

Smart ta'lim tarixda birinchi 1954-yilda Avstirayadan chiqqan Amerikallik olim, iqtisodchi, puplistik, pedagog, XX-asr menejment nazariyachilardan biri Piter Ferdinand Druker kiritgan. So'ngra 1965-yilda Paul J Meyer keyin 1981-yilda George T Doran o'zning ilmiy ishlarida qo'llaganlar.

Smart so'zi bir nechta so'zlarning yig'indisidan olingan bo'lib. Bu so'zlarni kengroq ko'radigan bo'lsak.

S -specific – aniq : xar bir maqsad uchun , uning aniq ifodalash shundayin tasvirlash kerakki unga xammaga aniq va tushunirali bo'lsin.

M – measurable – o'lchovli : Maqsad shunday ifodalashimiz kerakki, unga erishish meyor o'lchash imkoni bo'lsin.

A – achievable – erishiladigan xar doim belgilagan maqsadga erishish imkoniyati bo'lishi kerak.

R – realistic – muvofiq resurs natijalar yo'nalgan maqsad ifodalash ijobiy o'zgarishlarga erishish uchun boshlang'ich qismga ega bo'lishi lozim.

T – time bound – vaqt bo'yicha chegaralar xar bir maqsad aniq vaqtinchalik chegaraga ega bo'lish muhim . chunki belgilangan muddatlarni o'lchash imkoni bo'lsin.

Smart ta'lim hozirda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va institutsional ta'limga yangi texnoliyalarni doimiy joriy etish natijalarida paydo bo'ladigan ta'limning odatiy xususiyati hisoblabnadi.

Smart ta'lim tizimi juda ko'p turdagi malumot manbalarga ega. Misol uchun bular multimeding, audio, video, grafik turlari yuqori xilma-xilligini bilan tinglovchilarning etiborini jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Bu ta'limda mutlaqo yangi ta'lim muhiti bo'lib, Unda ta'lim faoliyati internetda umumiy standartlar texnologiyalar, ta'lim muassalari bilan birga tuzilgan shartnomalar bilan olib boriladi.



Smart texnologiya o‘zi nima deganda biz tushinishimiz mumkinki axborot asrning tez rivojlanishi natijasida ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalarni (AKT) - Axborot kommunikatsiya texnologiyalari real ta’limda qo‘llash. Zamonaviy axborot infrastrukturasi yaratish. Yangi darslik multimedia dasturlarni yaratish va ta’limga qo‘llash yakunga yetib bormoqda.

Smart texnologiya va interfaol doskalardan foydalangan holda ma’lumotni fotosuratlar, xaritalar, grafiklar, sxemalar va animatsion videolar yordamda tasvirlash mumkin. Bu o‘rganishni yanada jozibador, qiziqarli va tushinarli qiladi. O‘quvchilarni mavzuni uzoq vaqt davomida o‘rganish va yodlash qobiliyatini rag‘batlantiradi. Bu universal haqiqatdir, biz visual tasvirlash orqali o‘rgansak, biz shunchaki doskaga qarash va tinglash o‘rniga mavzuni osongina tushinamiz.

So‘rovlarga ko‘ra smart texnologiya joriy etilgandan so‘ng o‘quvchilarning faolligi 55 foizga yaxshilangan. Smart doskalarni mavjudligi o‘qtuvchilarga mavzuni tushintirishda o‘z taqdimotlarida turli proyeksiyalardan foydalangan holda ma’ruzalarni yanada samarali o‘tkazishga yordam beradi.

An’anaviy o‘rganishdan usulidan farqli o‘laroq, talabalar uzoq yozma eslatmalarni yozishlari kerak edi. Smart -klass texnologiyasi talabalarga onlayn taqdimotlar qilish va o‘qituvchilaridan qisqa vaqt ichida fikr-mulohazalarni olish imkonini beradi.

Misol keltiradigan bo‘lsak oliy ta’lim yurtlarda , kasb hunar texnikumlarda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarda smart ta’limni qo‘llanishi juda katta ijobiy natija berdi. Dars jarayoni klassik zerikarli ta’lim tizimdan butkul o‘zgardi.

Texnologiya fanida smart ta’limdan foydalanish darsni o‘quvchilarni zerkishlardan holi noadatiy texnikalardan foydalangan xolda qiziqarli dars o‘tishda juda katta yordam beradi. Texnologiya fanida robotexnika, suniy intellekt, avtomatika

fanlardan bilimlar olishda nazariy hamda amaliy bilimlar olishda juda katta yordam beradi.

O'quvchilarning o'zlari mustaqil fanlardan o'rganishga bilim olishiga katta yordam beradi. Smart ta'limni foydali tomonlari juda ko'p. Ulardan biri o'quvchilarni mustaqil o'rganish jayonida tug'ilgan turli xil o'qtuvchisidan doimiy aloqada bo'lib malumotlar almashinib turadi. BU muhitda o'qtuvchi ham o'quvchilar ham doimiy izlanishda bo'ladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak hozirgi an'anaviy ta'lim tizimidan voz kechgan holda noanaviy smart ta'lim tizimidan ta'lim yurtlarda keng miqyosda tatbiq etish kerak. Chunki aqlli ta'lim hozirgi texnologiya yutuqlardan foydalanib zerikarli an'anaviy dars jarayoni mutloq yangi ta'lim muhitni yaratib darsni noanaviy qiziqarli o'quvchilarni darslarga bo'lgan ishtiyoqni yanada ortiradi. Aqlli ta'limni yana ko'p qulayliklari bor. Bullardan o'quvchilarni zerikarli maruza va yozishlardan holi holda va hohlagan joydan turgan holda ta'lim olish imkoni beradi. Bu esa mablag' va vaqtni tejaydi. Bularning barchasi smart ta'limda mujassamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Н.В. Днепровская, Е.А. Янковская, И.В. Шевцова. Понятийные основы: концепции smart-образования. Открытое образование, 6 (2015)
2. Б. А. Ахмедов, Н. Шайхисламов, Т. Мадалимов, & Қ. Махмудов (2021). SMART ТЕХНОЛОГИЯСИ ВА УНДАН ТАЪЛИМДА ТИЗИМИДА КЛАСТЕРЛИ ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИ. Scientific progress, 1 (3), 102-112.
3. Дмитриевская Н.А. Смарт образование. Режим доступа: <http://www.myshared.ru/slide/72152/>
4. Бектурова З.К., Вагапова Н.Н., Филиал АО «НЦПК «Орлеу» ИПК ПР по г. Астане, г. Астана 3 (2015)
5. Yuldashev, O. T. (2020). Development prospects of investment insurance product "Unit-Linked". International Finance and Accounting, 5, 1.
6. Toshpo'latovich, Y. O. (2022). THE REPLACEMENT OF TECHNOLOGICAL EDUCATIONAL WORK IN GUIDING SCHOOL STUDENTS TO CHOOSE THE RIGHT PROFESSION.

7. Toshpo'latovich, Y. O. (2022). REGARDING THE ORGANIZATION OF WOODWORKING TRAINING IN A NON-TRADITIONAL WAY.
8. Yuldashev, O. (2018). IMPORTANT FEATURES OF EVALUATING EFFICIENCY OF TAX PREFERENCES. *International Finance and Accounting*, 2018(4), 40.
9. Yuldashev, O. (2021). SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL BASIS OF POTATO DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*.
10. Юлдашев, О. (2022). Talabalar bilimini nazorat qilishda nostandart test topshiriqlaridan foydalanishning ahamiyati. *Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности*, 1(5), 345-352.
11. Юлдашев, О. (2022). Smart texnologiyasini texnologiya darslaridagi talqini. *Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности*, 1(5), 336-344.